

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING IJTIMOIYLASHUVINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYALARI TALQINI

Xolmatova Gulabzaxon

Farg‘ona davlat universiteti
1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuvini rivojlantirishni konsepsiya talqinida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, ijtimoiylashuv, boshlang‘ich ta‘lim, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, sotsiologiya.

Konsepsiya avvalo o‘zi nima? Konsepsiya bu (lot. conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda — biror asarning asosiy g‘oyasi. Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning "meni"ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Bazan muallif mo‘ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e‘tibori bilan asar o‘z konsepsiyasiga ko‘ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo‘ladi. O‘quvchining ma‘naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta‘kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko‘ra, Konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o‘z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san‘at asarining konsepsiyasi tarzida qo‘yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi — usuli bo‘lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san‘at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rnini hamda o‘quvchilar ommasiga ta‘sir etish darajasini belgilaydi.

Bilamizki, so‘ngi yillarda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ta‘lim sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan boshlang‘ich ta‘lim tizimida ham qator o‘zgarishlar va yangilanishlar olib borildi. Bularning barchasini esa kelajak avlodni yanada ilmi, ma‘rifatli, respublikamizga kerakli kadr qilib yetishtirish yo‘lidagi harakatlar deb atasak so‘zimizda mubolag‘a bo‘lmasa kerak.

Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish Respublikamizda qator qonun va farmonlarda ham asosiy yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan. Jumladan, qonunchilik palatasi

tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va senat tomonidan 2020-yil 7- avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida, "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va uni tasdiqlash to'g'risidagi Prezident farmonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz joizki, o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagiga davlat, jamiyat, maktab, mahalla hamda oila birdek mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanib brogan sari boshlang'ich ta'lim ham takomillashib boradi.

Ilmiy tadqiqotlar boshlang'ich ta'limning samarali rivojlanishiga asos bo'lmog'i kerak. Bu sohadagi asosiy yo'nalish va muammolar qatorida quyidagilarni ko'rish mumkin:

➤ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy , tarixiy , milliy , ma'naviy xususiyatlarga mos ravishda boshlang'ich ta'limning ilmiy nazariya asoslarini ishlab chiqish;

➤ Markaziy Osiyo xalqining boshlang'ich ta'lim sohasidagi tarixiy tajribasini o'rganish;

➤ Jahon pedagoglarining boshlang'ich ta'lim sohasida mavjud bo'lgan tajribalarini o'rganish;

➤ Turkiy xalqlarda boshlang'ich ta'lim;

➤ Rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Germaniya)

Mazkur konsepsiya ilgari surilgan qarashlar o'zining amaliy tadbirini topgandagina davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimining birinchi bo'g'ini oldiga qo'ygan talablarni bajarish imkoniyati vujudga keladi .

Yosh avlodni jamiyatda o'z o'rni va o'z pozitsiyasida tura olishi uning maktab va oilada rivojlantirilgan ijtimoiylashuv jarayoniga ko'p jihatdan bog'liq. Bola maktabgacha bo'lgan davrda birmuncha ijtimoiylashish elementlarini o'ziga singdiradi. Bu elementlar albatta 27 maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va atrof muhitdan olingan taassurotlar natijasida hosil bo'ladi. Boshlang'ich sinfga kelganda esa har bir bola o'zini yangi pozitsiyada, ya'ni, o'quvchi pozitsiyasida ko'ra boshlaydi. Endi uning mas'uliyatlari birmuncha darajaga oshgan va bolaga nisbatan talabchanlik ham sezilarli darajada ko'paygan.

Ayni shu davrdan boshlab bola sotsiologiyasida tubdan o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Ayrim o'quvchilar maktabdagi o'quvchilik statusini mustahkam egallab, oiladagi farzandlik statusidan birmuncha ortda qolayotgandek tuyiladi yoki aksincha holat yuzaga keladi. Bunday vaziyatlar ro'y bermasligi, bolaning jamiyatdagi har bir statusini saqlab qolish va har qanday holatda ham ushbu statusda o'z fikrini ravon ifodalay olishiga ko'maklashish bizning oldimizdagi asosiy vazifalarimizdan biri

bo'lishi kerak. Va bu vazifani bajarishda boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan birgalikda maktab psixologi, ota-ona va jamiyat ham birgalikda teng harakat qilishlari kerak. Bir qancha malakali pedagoglar tajribasidan kelib chiqqan holda shularni ta'kidlashimiz kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligi maktabdagi va oiladagi statuslarini birdek olib keta olmasliklari sababli bola psixologiyasida ko'plab o'zgarishlar ro'y beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning eng asosiy muammolaridan biri shuki ijtimoiylashtirishning metodologiyasi har doim ham to'g'ri tashkil etilmayotganligidadir.¹

O'quvchilarni ijtimoiylashtirish metodologiyasini har bir pedagog o'z sinfidagi o'quvchilarning kelib chiqishi, psixologiyasi va o'quvchilarning oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqishi lozim deb o'ylayman. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari, ayniqsa dastlabki birinchi va ikkinchi yillarda maktab sharoitiga ko'nikishi qiyin yoki umuman ko'nika olmayotgan bo'lishi kuzatiladi. Lekin yana shuni ham aytish kerakki, ayrim bolalar maktabda, dars jarayonida o'zlarini erkin va qat'iyatli tutadilarki, lekin oila a'zolari bilan suhbat olib borilganida oilada juda kamsuqum farzand ekanligini aniqlash mumkin. Demak bola o'z statuslarini yaxshi anglolmagan yoki shu statusda turishida unda qo'rquv bor. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning ijtimoiylashuvida oila va maktab birgalikda ish olib borishi zarur.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me'yori va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagoglar, "agent"lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar

¹ Golovanova N.F., Boshlang'ich sinf o'quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb.: Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17.

ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning hali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashidir. Bu ehtiyoj:

- a) o'z qarashlariga ega bo'lish;
- b) o'ziga xosliklariga ega bo'lish;

v) unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga to'siq bo'ladigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi. Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi.

S.L.Rubinshteynning so'zlariga ko'ra, "bola rivojlanadi, tarbiyalanadi va o'rganadi, tarbiyalanadi va o'qiladi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim va tarbiya bolaning rivojlanish jarayonida bo'lib, uning ustiga qurilgan emas; bolaning shaxsiy ruhiy xususiyatlari, uning qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar, nafaqat paydo bo'ladi, balki ta'lim va tarbiya berish davomida ham shakllanadi.¹

¹ Rean A.A. Shaxsning sotsializatsiyasi // O'quvchi: Rossiya psixologlarining asarlarida shaxsiyat psixologiyasi. - SPb .: Piter, 2000. S. 151.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Smirnova N.Z., Berejnaya O.V. Kompetentnosnyy podxod v pedagogicheskom obrazovanii. Uchebno-metodicheskaya posobie./ Krasnoyarsk, 2019,-168s.
2. Qurbonova Maftuna, Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta’limi, 2020. 3-maxsus son, 29-33 bet.
3. Golovanova N.F., Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb .: Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17.
4. Rean A.A. Shaxsning sotsializatsiyasi // O‘quvchi: Rossiya psixologlarining asarlarida shaxsiyat psixologiyasi. - SPb .: Piter, 2000. S. 151.
5. Jumaboyeva M. Umumiy o‘rta ta’limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21 b.